

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Умарханова Дилдора Шарипхановна

ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ
РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 9-14

Yakubova Iroda Bahramovna

MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA
MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR..... 15-26

Собирова Нозимахон

СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ
ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ 27-36

Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли

ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ
ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ 37-45

Турсунов Ойбек

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА 46-53

Ismoilova Aziza Alisher qizi

MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY
EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI 54-60

Safarova Shaxlo Pulatovna

YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON
HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI 61-67

Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi

CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES 68-71

Valijonov Daler Dilshodovich

PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE
AND PRACTICE OF EU MEMBERS 72-76

Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li

DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY
MASALALARI 77-92

To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li

VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI 93-103

Хайдарова Хилола Анваровна

НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ... 104-109

Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи

СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ 110-118

Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи

ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

Received: 10 August 2024
Accepted: 15 August 2024
Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

MORAL VIEWS OF ABDULLA AWLANI IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE

Ruziyeva Nafosat Abdumuminovna

Navoi University of Innovations "Teacher of the Department of Social and Humanities

Abstract. This article describes the role, duties, and responsibilities of parents in preparing young people for family life, as well as the advice of our great ancestors for the young generation to grow up healthy and mature.

Key words: Family, child upbringing, manners, morals, education, education, enlightenment, modernity, modernity.

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY QARASHLARI

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onaning o'rne, vaziflari, majburiyati hamda yosh avlodning sog'lom barkamol bo'lib voyaga yetishida buyuk ajdodlarimizning pand nasihatları bayon etilgan va shu bilan birga A.Avloniyning yoshlar tarbiyasidagi axloqiy qarashlari aks etgan.

Kalit so'zlar: Oila, bola tarbiyasi, odob, axloq, tarbiya, ta'lim ma'rifat, jadid, jadidchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N31>

Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni har daqiqada uning yurish-turish, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas.

Shavkat Mirziyoyev

Farzand tarbiyasi! Qanchalik mukammal, sinoatga to'la, insoniy muomala-munosabatlar umumlashgan bu kalomda. Odamzod yaratilib, o'ngli hayot kechira boshlabdiki, bu masala nihoyatda dolzarb va o'ta nozik masala bo'lib kelmoqda. Yaxshi farzand – ota-onaning bebaho mulki, qalb gavhari, muborak siri va ulkan kashfiyoti. Farzandning kamolidan go'zal xulqidan ota-onaning ko'ngli nurafshon bo'ladi, hayoti zavq-shavqqa to'ladi. Bu sharafiga ega bo'lganlar hurmat va izzat tojini kiyadilar, dunyo donishmandlariga aylanadilar. Aksincha noqobil farzandning nojo'ya xatti-harakatidan ota-onaning qaddi bukiladi, dili ozor chekadi, tarbiyada yo'l qo'ygan xatosi oqibatida pushaymonlik dardiga griftor bo'ladi. Shunday ekan, har bir ota-ona uchun farzand tarbiyasi yo'lida ranj chekmoq, hayotini ushbu yumushga safarbar etmoq dunyo ishlarining sharaflisi, zalvarli vazifalarning sarbalandi hisoblanadi.

Darvoqe, bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki jamiyatning eng katta boyligidir. Shu jihatdan olganda yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lgan oilani mustahkamlash barchamizning insoniy burchimizga aylangan.

Hozirgi kunda talaba yoshlar jamiyatimizning ijtimoiy faol bo'lagi sanaladi. O'zbekistonning kelajagi hisoblangan komil insonni tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilada ijtimoiy sog'lom muhitni shakllantirish bugungi kunning dolzarb eng muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa yurtimizda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari uchun zamonaviy bilim olish, erkin kasb tanlash hamda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan isloh etilib, ularning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shuningdek Prezidentimiz "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"da ham Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish alohida band sifatida kiritilgan. Unda ta'kidlanishicha, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikirlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasini takomillashtirish zarurdir. "Harakatlar strategiyasining" IV bo'lim 4.5. bandida quyidagi masalalar ilgari surilgan.

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish[1].

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan oila qurish yoshidagi talabalarga oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onaning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishi ahamiyat kasb etadi. Oiladagi tarbiyaning xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi. Buning uchun har bir ota – onalar o'zida milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini o'zgartirmog'i lozim. Milliy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashda, xalqning ma'naviy merosidan, ota-bobolarimizning pand-nasihatlarini, tajribalari asosida eng yaxshi va olijanob an'analar ruhida tarbiyalash, ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alviridan o'tib, saralanib bizgacha etib kelgan o'gitlarini ongiga, dunyoqarashi va shuuriga sindirib borilmog'i darkor. Shu bilan birga bizning buyuk ajdodlarimiz, mutafakkirlarimizning pand nasihatlarini o'gitlari ilmiy merosi yoshlar tarbiyasi

uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirishda sharq mutafakkirlari asarlarining ahamiyati kattadir.

Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan bog'liq ko'pgina muhim muammolar ilgari surilgan. Bular hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy omillardir. Beruniy, Ibn Sino, asarlarida ham milliy o'ziga xos tarixiy an'analar ifodalangan. Shuningdek, Imom Ismoil Buxoriy, Imom Termeziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband ta'limotida ham yoshlarni halollik, poklik, mehnatsevarlik va insonparvarlikka chorlovchi g'oyalar juda ko'p uchraydi. Ayniqsa, Unsurul Ma'aliy Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida oiladagi sog'lom muhit, farzandlarning axloqiy tarbiyasi masalasiga alohida o'rin qaratilgan. Shu xususda, xalqimiz tarixida o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy-ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati yoshlar ongida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatdi. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi.

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, "Usuli qadim" ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o'lkadagi maxalliy xalqning ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffaq bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarqala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi [3]. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi. Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko'rsatdi. Bular :

- maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash),
- san'at (badiiy adabiyot, teatr)
- matbuot (gazeta jurnallar).

Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida, o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi[5]. Turkiston jadidchilari

tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so'nggi choragida uyg'ongan ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik qarashlarining ta'siri katta bo'ldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e'tibor bersak, marifatparvarlik mafkurasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz. Mamlakatimizda marifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvar fidoiy kishilarning qattiq takib ostiga olinganligi va xatto ularning qatl etila boshlaganligi edi. Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan demokratik g'oyalarni: ilm o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so'z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat qurilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida o'z milliy qiyofasini yo'qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviy-axloqiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy o'zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni mustaxkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladilar. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy islom dini, shariat asoslari va hadislar ham o'z ta'sir kuchini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar. Jadidchilar o'zlarining ilg'or g'oyalarini Xalq o'rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamonaviy ta'lim sistemasini joriy qilish, ilg'or g'arb mamlakatlariga mahalliy yoshlarni o'qishga junatish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qildilar. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827 - 1897) «Navodir ul - vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritarkan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar[5].

Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto o'z mablag'larini

ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur.

Abdulla Avloniyni muallimlik faoliyati ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari jadidchilikning muhim bir amaliy qanoti bo'ldi. U o'z davrida kishilarda, yosh avlodda chin insoniy axloqiy hislatlar bilan tarbiyalashni istadi. Avloniy tarbiyaning zaboni haqida shunday deydi: Endi ochiq bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? - degan savol keladur. Bu savolga, "Birinchisi - uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir", - deb javob bersak, bir kishi deyurki, "Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar", - der. Mana, bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, "Qaysi ota? To'ychi ulochi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qilmagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qutmak, tarbiya qilmak lozimdur", - der. Mana bu so'zni eshitgach, umid qo'llari qo'ltuqg'a urilur.

Xayr, bo'lmasa muallim-chi, desak, "Qaysi muallim? Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumagan, "usuli ta'lim" ko'rmagan muallimlarni aytursizmi? Avval o'zlari "dorulmuallimin"larda o'qimamlari, so'ngra dars bermakalari lozimdur", - der. Mana bu so'z insonni hayrat daryosiga g'arq qilur.

Mudarrislarga ne dersiz desak, "Qaysi mudarris? Martabalari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtixon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Bular o'z vazifalarini bilub, nafslaridan kechub, zamonga muvofiq ravishda darslarni isloh qilub, imtixon birla o'qutmamlari lozimdur", - der. Mana bu so'z har kimni "Al-isloh" demakka majbur qilur. Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallalohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur", - demishlar.

Agar bir qushning yosh bolasin olib,
Bo'lur tarbiyat birla yolg'a solib.
Onasin olib asrag'on birla rom,
Qilmas, kishi sa'y qilsa mudom.

Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak.
Egur bemashaqqat kishi navdani,
To'g'unchi egur kuydirib kavdani[2].

Yaxshi tarbiya ko'rgan odamning hislatlaridan biri shuki, bunday odam o'z faoliyatida boshqalardan bir qadam oldinga o'tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklariga yordam qo'lini uzatadi, safini kengaytirib, yangi g'alabani ko'zlaydi. Ma'naviyatning odamiylik, odob-axloq, oilaviy munosabatlar, poklik, mehr-muruvvat jihatlari inobatga olinsa, dunyo avval bizga yetib olsin, deydigan darajada buyuk axloqqa ega xalqmiz. Yoshlarning axloqiy tarbiyasini

rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z – o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e'tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo'ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo'lib, u axloqiy hayotning substansiyasi, ya'ni asosi hisoblanadi. Axloqiy madaniyatni substansiya sifatida tashkil etuvchi substansional elementlar, birinchidan, axloqiy madaniyat sifatidagi inson, ikkinchidan, insonlarning axloqiy ehtiyojlari, uchinchidan, axloqiy ehtiyojlarni anglash zaruriyatidan kelib chiqadigan va axloqiy maqsad, reja kabilarni o'z ichiga olgan – axloqiy ong, to'rtinchidan, insonning yaratuvchilik faoliyatining bir ko'rinishi axloqiy anglash negizida va u bilan parallel ravishda amalga oshadigan –axloqiy ijodkorlik, beshinchidan, axloqiy ijodkorlik natijalari bo'lgan o'gitlar, yurish – turish odoblari, axloqiy urf – odat va muassasalar, oltinchidan, axloqiy ijodkorlik natijalarining hayotda foydalanishidan iborat. Ularning bir butunligidan axloqiy turmush tarzi, individual axloqiy munosabatlar, axloqiy tendensiyalar va xulq shakllanadi[6].

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Bu navqiron millat sifatida katta intellektual imkoniyatlar O'zbekistonda mavjud ekanligini ko'rsatadi. Yoshlik – bu axloqiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati foydali bo'lishigina emas, balki bu faoliyat o'z shaxsiy maqsadlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar to'laroq ko'maklashishi ham g'oyat muhimdir.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasi xususida so'z yuritganimizda biz Avloniyning axloqiy tarbiya to'g'risidagi fikrlariga to'xtalamiz. Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila choqushturub o'rgatmaklari lozimdur. Bu ravish ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar.





Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallalohu alayhi vasallam afandimiz: Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurgan kishilar”, - demishlar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur[7].

Talaba-yoshlar axloqiy tarbiyasini shakllantirishga doir shakl va metodlar

1. Tushuntirish(hikoya qilish,o'rgatish).
2. Mashqlantirish(odatlantirish,mashqqildirish)
3. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish)
4. [Nasihat qilish](#), o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar). qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar)tizimi ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagi axloqiy qarashlardan kelib chiqib, axloqiy tarbiyani amalga oshirishda talaba-yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi jadval asosida talabalarning hissiy va axloqiy madaniyatni tarbiyalashning vazifalarini ko'rib chiqamiz.

Oliy ta'limda Pedagogika yo'nalishi ta'lim olish bosqichlari kesimida

Axloqiy tarbiyaning rivojlanish kategoriyalari	Bosqichlar			
	1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs
hissiy-irodaviy o'z-o'zini tartibga solish va baholash istaklar madaniyatini rivojlantirish;				
O'z Vatanining ma'naviy qadriyatlarini bilish va anglash; bag'rikenglikni tarbiyalash, mas'uliyat bilan harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish; o'z-o'zini tarbiyalash;				
Axloqiy tarbiya negizida mas'uliyat va dahldorlik tuyg'ularini shakllantirish. ijodiy intellekt faoliyatini rivojlantirish va rag'batlantirish				

Tabiiyki, bu yerda ta'kidlangan g'oyalar avvalgi yosh bosqichlarida ham mavjud bo'lib, talaba-yoshlarning aniq belgilangan, bu davrida ularda axloqiy xislatlarni chuqurroq o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Axloqiy xislatlar va shaxsiy xislatlar mujassamlashganda yanada barqaror ko'rinishda bo'ladi. Talaba-yoshlarning kundalik hayotidagi axloqiy me'yorlar jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari bilan ularning amalda qo'llanilishi o'rtasidagi muhim bo'g'in hisoblanadi.

Ilmi axloqning asosi tarbiya hisoblanadi, bolaning salomi, va saodati uchun yaxshi tarbiya qilish, tanasini pok tutish, yaxshi xulqlarni o'rgatish va yomon odatlardan saqlash lozim. Tarbiyaning axloqqa juda katta ta'siri bor. Xalqimizda bir masal borki "Sut ila kirgan, jon ila chiqar". Axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashga yoshlarni undashni ham ko'zda tutadi. Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, yoshlarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy madaniy va ma'naviy merosidan, axloq, odob, tarbiya borasidagi an'analardan qanchalik samarali foydalansak, milliy mustaqilligimizning chinakam fidoyisi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash borasida shunchalik sezilarli yutuqlarga erishamiz. Axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkazamiz. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga axloqiy-psixologik tayyorgarligi, uning bir qator xulq me'yorlarini, talablarni, burchlarni anglab etganligidan dalolat beradi. Zero, oilaviy tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lmog'i zarur. Bugungi kunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining balki hozirgi kun yoshlarining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari 2023 yil 9, 4, bet.
3. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
4. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboev O'zbekiston 2010 yil.
5. Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va ularning xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni doi: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.25.070> Bobonazarov Orif Abrayqulovich terdu, Ijtimoiy ish kafedrasida katta o'qituvchisi. ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2021 год Сп.вып.).
6. Yoshlarini ta'lim va ma'naviy-axloqiy jihatdan Tarbiyalash masalalari (sharq mutafakkirlar Qarashlarida) Baxtigul Artikova Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi.
7. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari. 2023 yil 13-bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).